

XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING

QARORI

2024-yil 25-aprel

VI-100-52-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy byudjet prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, soliq qarzlarni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha hisoboti haqida

Tumanda mahalliy byudjet prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, hududning iqtisodiy o'sish nuqtalarini inobatga olgan holda qo'shimcha manbalarni aniqlash, soliq qarzlarni qisqartirish, ortiqcha to'lovlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligini oshirish, tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i A.Turg'unovning hisobotini muhokama etib hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 100- sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i A.Turg'unovning "Tuman mahalliy byudjet prognoz ko'rsatkichlari bajarilishini ta'minlash, soliq qarzlarni qisqartirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha" hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tumani bo'limi (I.Nurmuradov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashi markazi (E.Raximov)ga:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrda PQ-458-son qarori ijrosini ta'minlash, aholining soliq to'lash savodxonligini oshirish orqali undirishga ko'maklashish va har bir mahalla o'zining muammosini mustaqil hal etishi vazifasi belgilanganligi yuzasidan tumandagi soliq undirish ko'rsatkichi pasaygan Bunyodkor, Omonkalxat, Melixo'ja, Yangiqiyot mahallalari bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilasin.

3. Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig'i (A.Turg'unov) 2024-yil tuman mahalliy byudjetlari daromadlar qismini prognoz ko'rsatkichlarini soliq turlari bo'yicha belgilangan rejalarini oshirib bajarilishini ta'minlash;

-mahalliy byudjetning 2024-yil II chorak daromadlar prognoz ko'rsatkichlarining barcha manbalar bo'yicha so'zsiz bajarilishini ta'minlash;

-daromadlar bazasini kengaytirish va iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zaruriy choralarni ko'rish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (X.Tillayev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'imatov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN
XOLIKULOVICH